


## ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Xorazm viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiy rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2021- yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 3712,7 mlrd. so‘mmi tashkil qilib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 141,0 % ga ko‘paydi.



## Asosiy kapitalga investitsiyalar 2021- yil yanvar-iyun

	<i>Mlrd. so‘m</i>	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>	<i>Jami hajmga nisbatan %da</i>
<b>Jami</b>	<b>3712,7</b>	<b>141,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
<b>Markazlashgan investitsiyalar</b>	<b>393,0</b>	<b>95,9</b>	<b>10,6</b>
Davlat byudjeti mablag‘lari	227,4	141,4	6,1
Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	31,8	118,8	0,9
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	123,4	-	3,3
O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi chet el kreditlari	10,4	4,7	0,3
<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	<b>3319,7</b>	<b>149,4</b>	<b>89,4</b>
Korxona o‘z mablag‘lari	881,8	194,0	23,8
Aholi mablag‘lari	567,3	92,1	15,3
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlari	1124,9	114,6	30,3

	<i>Mlrd. so‘m</i>	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>	<i>Jami hajmga nisbatan %da</i>
--	-------------------	---------------------------------	-------------------------------------

Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari

745,8

183,3

20,1

Umumiy hajmning markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 393,0 mld. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar yoki umumiy hajmning 10,6 % i, shuningdek, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari orqali 3319,7 mlrd. so‘m (yoki 89,4%) o‘zlashtirildi.




**Korxona mablag‘lari-881,8 mlrd.so‘m**

**Aholi mablag‘lari-567,3 mlrd. so‘m**

**To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar-1124,9 mlrd. so‘m**


**Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari-745,8 mlrd. so‘m**

## Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar




Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Tuproqqa'l'a - 293,7 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 179,2 mlrd. so'm), Shovot - 193,2 % (251,8 mlrd. so'm), Hazorasp - 186,0 % (194,8 mlrd. so'm), Xiva - 167,6 % (171,1 mlrd. so'm).

## Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga ozlashtirilgan investitsiyalar




## Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar



Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2021- yilning yanvar-iyunida 1955,3 ming so'm yoki 139,0 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Urganch shahriga to'g'ri kelib 6 140,3 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 124,8 % ni tashkil etdi, Yangibozor tumanida 2691,2 ming so'm (yoki 138,2 %.) va Tuproqqa'l'a tumanida 3217,1 ming so'm (yoki 2,9 m.) darajada qayd etildi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni o'zlashtirish: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 1034,2 mlrd. so'm (jami investitsiyalarning 27,9%), ishlab chiqarish sanoati – 692,4 mlrd. so'm (18,6%), qurilish - 201,6 mlrd. so'm (5,4%), ulgurji va chakana savdo, avtotransport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash - 272,5 mlrd. so'm (7,3%), ta'lim - 86,5 mlrd. so'm (2,3%), uy-joy qurilishi - 363,1 mlrd. so'm (9,8%) va boshqa faoliyat turlari – 926,5 mlrd. so'm (25,0%).

### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

2021- yilning yanvar-iyun oylarida 1135,2 mlrd. so'm o'zlashtirilib (dollar ekvivalentida 108,1 mln. AQSH doll.), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,7 % tashkil qildi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiy tarkibida xorijiy investitsiyalar 142,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi ,shuningdek, 992,4 mlrd. so‘m xorijiy kreditlarga to‘g‘ri keldi.

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 138,3 mlrd. so‘mni, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar - 10,4 mlrd. so‘mni, boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar – 986,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Shovot tumaniga to‘g‘ri kelib, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 10,9 % ni ta‘minladi, Xonqa tumanida 10,6 %, Tuproqqal‘a tumanida 8,7 % kuzatildi.


## Xorijiy investitsiya va kreditlar

	<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o‘zlashtirishi, mlrd. so‘m</i>		<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o‘zlashtirishi, nisbatan % da.</i>	
	<i>Jami:</i>	<i>Shu jumladan, kreditlar:</i>	<i>Jamiga:</i>	<i>Asosiy kapitalga investitsiyalar:</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1135,2</b>	<b>992,5</b>	<b>100</b>	<b>30,6</b>

<i>shahar va tumanlar:</i>				
<b>Urganch sh.</b>	83,4	58,0	7,3	9,4
<b>Xiva sh.</b>	63,5	44,4	5,6	36,2
<b>Bog‘ot</b>	96,8	96,7	8,5	32,7
<b>Gurlan</b>	77,5	71,1	6,8	37,2
<b>Qo‘shko‘pir</b>	74,1	57,6	6,5	41,7
<b>Urganch</b>	86,9	77,0	7,7	35,1
<b>Hazorasp</b>	86,3	43,9	7,6	44,3
<b>Tuproqqal‘a</b>	98,3	97,5	8,7	54,9
<b>Xonqa</b>	119,9	117,2	10,6	26,8
<b>Xiva</b>	73,9	73,7	6,5	43,2
<b>Shovot</b>	123,4	123,4	10,9	49,0
<b>Yangiariq</b>	68,4	68,4	6,0	29,2
<b>Yangibozor</b>	82,9	63,6	7,3	34,9

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 30,6 % ni tashkil qildi.

## Xorijiy investitsiya va kreditlarni o‘zlashtirish (*mlrd. so‘m*)



Jami o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar umumiy hajmga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 0,9 % yoki 10,4 mlrd. so‘m, 99,1 % yoki 1124,9 mlrd. so‘m xorijiy investitsiya va kreditlar, shundan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya 138,3 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi

**Qurilish-montaj ishlari**

• 29,9%

**Mashina asbob- uskunalar va inventar**

• 63,9%

**Boshqa xarajatlar**

• 6,2%

**Jami investitsiyalar**

100 %



## Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida viloyatda qurilish-montaj ishlarining ulushi 29,9%, mashina va uskunalar sotib olish xarajatlari - 63,9%, boshqa xarajatlarning ulushi 6,2% ni tashkil etdi.

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi  
Nashr uchun mas’ul: Sh.Babajanov  
Telefon: (0362) 224-65-22.**